

Iroda IBRAXIMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: iroda0705@gmail.com

Tel: (90) 297 07 05

JDPU dotsenti, f.f.f.d (PhD) PhD Sherzod Djabbarov taqrizi asosida

THE MEANING OF THE CONCEPT OF LINGUISTIC IDENTITY

Annotation

This article delves into the intricate relationship between language and identity through the lens of applied linguistics. Language, as a fundamental aspect of human communication, plays an important role in shaping individual and group identities. The article explores how language both reflects and constructs identity. Furthermore, the article discusses various scholarly contributions to the study of linguistic identity, including qualitative analyses conducted by renowned researchers.

Key words: identity, linguistic identity, sociolinguistics, applied linguistics, language preservation.

ЗНАЧЕНИЕ ПОНЯТИЯ ЯЗЫКОВОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация

Эта статья углубляется в сложные отношения между языком и идентичностью через призму прикладной лингвистики. Язык, как фундаментальный аспект человеческого общения, играет ключевую роль в формировании индивидуальной и групповой идентичности. В статье исследуется, как язык отражает и конструирует идентичность. Кроме того, в статье обсуждаются различные научные вклады в изучение языковой идентичности, включая качественный анализ, проведенный известными исследователями.

Ключевые слова: идентичность, языковая идентичность, социолингвистика, прикладная лингвистика, сохранение языка.

LISONIY IDENTIKLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola til va identiklik o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni amaliy lingvistika doirasida o'rganib, identiklik tushunchasining mazmun-mohiyatini izohlaydi. Til, insoniy muloqotning asosiy vositasi sifatida, shaxs va guruh identikligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maqolada til qanday qilib identiklikni aks ettirishi va shakllantirishi masalasi o'rganilib, bunda lisoniy identiklikni tadqiq etgan turli olimlar tomonidan olib borilgan sifatli tahlillarga murojaat qilinadi.

Kalit so'zlar: identiklik, lisoniy identiklik, sotsiolingvistika, amaliy tilshunoslik, tilni saqlash.

Kirish. So'nggi yillarda globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va uning inson turmush tarziga ta'siri natijasida sotsiologlar va sotsiolingvistlarning identiklik va uning insonlar hayotidagi o'rni masalasiga e'tibori keskin oshdi; identiklikni shaxs, jamiyat va siyosat nuqtayi nazaridan o'rganish ayniqsa jadal tus oldi [1]. Chunki globalizatsiya jarayonlari natijasida dunyo xalqlari hayoti, turmush tarzi, kiyayotgan liboslari, iste'mol qilayotgan mahsulotlari, san'ati, madaniyatida o'xshashliklarning tobora ortib borishi natijasida bir qator davlatlarda identiklik inqirozi vujudga kelmoqda. Natijada fuqarolar o'zlarining takrorlanmas identikligini namoyish qilishlariga ehtiyoj kuchaydi. O'zlikni namoyon etish shaxsning boshqalardan qanday jihatlariga ko'ra farq qilishi va bir jamiyat a'zolari o'rtasida qanday umumiy o'xshashliklar bo'lishini ko'rsatadi. Global dunyomizdagi roli va murakkab tabiati tufayli identiklikni tadqiq etish tobora ahamiyatliroq bo'lib bormoqda [2].

Biz o'z tadqiqotimizda identiklikni lisoniy nuqtayi nazardan amaliy lingvistika doirasida o'rganish orqali uning shakllanishida til omilining o'rni va ahamiyatini aniqlashni maqsad qilganmiz.

Identiklik so'zi lotin tilidagi "idem" – "bir xil" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning sinonimlari sifatida haqiqiylik, o'zlik, originallik, individuallik, o'z-o'zini anglash, moslik, muvofiqlik, farq, o'xshashlik, yaqinlik, xususiylik va o'ziga xoslik kabi so'zlar keltiriladi [3]. Identiklik bir vaqtning o'zida ham shaxsning "Men kimman?" degan savolga o'zi berar javobi, hamda atrofda gilarining uning kimligini qanday idrok etishlaridir. Demak, identiklik ma'lum millat, madaniyat, ijtimoiy guruhga tegishlilik va tegishli emaslikni, o'xshashlik va farqlilikni ifodalash vositasi bo'lib, ham tashqi bahoni, ham o'zlik ifodasini akslantiradi [4].

Identiklik o'ta murakkab tuzilma bo'lganligi sababli uni tasniflashda yagona, izchil nazariy yondashuv mavjud emas. Identiklikning har qanday muhokamasi "men" tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u dinamik va murakkab, davomli, zamon va makon bo'ylab doimiy o'zgarib turuvchi, ijtimoiy, va ko'p sonlilik xususiyatlariga ega [5].

Identiklik bir qator faktorlar, xususan, din, etnik kelib chiqish, irq, ijtimoiy qatlam, ta'lim, ijtimoiy muhit va ushbu guruhga mansub insonlarning shaxsning yuqoridagi faktorlar bilan bog'liq mafkura va qarashlari haqidagi bilimi va ularga hurmatiga nisbatan bildiradigan reksiyalari ta'sirida shakllangan o'zlik konseptini ifoda etadi [6].

Identiklik o'ziga xos jihatlar, e'tiqodlar, shaxsiy xususiyatlar, tashqi ko'rinish va/yoki shaxs yoki guruhni tasvirlaydigan ifodalarni anglatadi. Identiklikning ahamiyati u orqali inson o'zini biror joy yoki biror narsaga tegishlided his qilishi bilan izohlanadi. Chunki "tegishlilik" tuyg'usi insonning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish va salomatligini saqlashda muhim o'rin tutadi. Til, ayniqsa nutq, xoh individual darajada bo'lsin, xoh guruh ichida bo'lsin u yoki bu shaxsning kimligini ochib beradi [7].

Bizda individual identiklik bo'lib, garchi u vaqt o'tishi bilan jismoniy va psixologik o'zgarishlarga uchrasa ham, aynan u orqali biz o'zligimizni anglab yetamiz. Bizning o'zimiz va o'z galar bilan aloqalarimiz bo'lmish identikliklarimiz ham gorizontalar (ayni damdagi), ham vertikal (xonologik) shaklda tasvirlanishi mumkin. Ular biznikiga o'xshash xususiyatlar va munosabatlarga ega bo'lgan boshqa shaxslar identikliklari bilan gorizontaldir. Masalan, bitta idiomani umumqo'lashni olaylik. Bizning identikliklarimiz, shuningdek, avvalgi o'zimiz va kelajakdagi "men"imiz bilan, oldingi va keyingi avlodlar, hamda joylar bilan vertikaldir. Bizning identikliklarimiz hech qachon turg'un bo'lmaydi – ular har doim o'zgarib turadi [8].

Bugungi kunda ijtimoiy fanlarda va xususan amaliy tilshunoslikda poststrukturalizm deb ataluvchi prinsiplarga asoslanib, identiklikning birlamchi xususiyati o'z garmas va tayyor mahsulot emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida ifoda etilmogda [9].

Identikliklar diskursiv faoliyat biz uchun yaratadigan vaqtinchalik subyekt pozitsiyalarini egallaganimizda namoyon bo'ladi [10]. U shunchaki egalik qilinadigan narsa emas, balki shakllantiriladigan tushunchadir.

Til identiklik shakllanish jarayonida muhim o'rin tutadi. Tilni unutish, yoxud uni kundalik faoliyatda qo'llashni kamaytirish shaxsning identikligiga putur yetkazishi, yoki unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Til identiklik shakllanishida 2 taraflama vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin: birinchidan, til shaxsning boshqa shaxslar va o'zi bilan muloqoti vositasidir. Til ifoda etish orqali o'zini anglab yetishning muhim bo'lari sanaladi. Ikkinchidan, til boshqalar bilan verbal muloqotga kirishish uchun zaruriy shartdir va u boshqalar tomonidan insonni identifikatsiyalash uchun qo'llaniladi [11].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jenkins identiklik haqida mulohazalarini bayon etar ekan, uning xususiyatlarini quyidagicha bayon etadi: 1. Identiklik unga egalik qilinadigan muayyan obyekt bo'lmay, balki sekin-astalik bilan shakllantiriladi. 2. Identiklik shakllanishi vaqt va makonni talab qiladi; shunga ko'ra u jarayondir. Zamon va makonga bog'liqligi sababli, uning ijtimoiy qo'llanilishi ham kontekstual jihatdan konstruktivdir. Shuningdek, identiklik nisbiy tushuncha bo'lib, u faqatgina identiklik sohiblarining bir-biridan qanchalar farqliligi va bir-biriga qanchalar o'xshashligini aniqlash orqali izohlanishi mumkin [12].

Insonning identikligi bir qancha jihatlarida namoyon bo'lib, uni turli olimlar turlicha klassifikatsiyalagan.

Block (2006) talqiniga ko'ra identiklikning quyidagi turlari bor: 1. Etnik: Madaniy guruhga tegishli umumiy jihatlar, xususan tarix, shajara, e'tiqod, an'analar, til va din umumiyliги tuyg'usi; 2. Irqiy: Biologik/genetik tarkib; 3. Milliy: Millat darajasida umumiy bo'lgan tarix, shajara, e'tiqod, an'analar, til va din umumiyliги tuyg'usi; 4. Jinsiy: Ijtimoiy shakllantirilgan ayollik va erkaklik tushunchalariga muvofiqlik tabiati va darajasi; 5. Lisoniy: Shaxsning o'zlik tushunchasi va turfa muloqot vositalari: til, sheva hamda sotsiolekt o'rtasidagi aloqada ko'rinadi [13].

Gee identiklikning 4 turini farqlaydi: tabiiy identiklik, institutsional (ta'sis etilgan) identiklik, diskurs identiklik va o'xshash (affinity) identiklik. Ushbu klassifikatsiyada Gee lisoniy identiklikni diskurs identiklik termini bilan ifoda etadi va uni tabiiy identiklikning aksi o'laroq shaxslar tomonidan muloqot davomida shakllantiriladigan identiklik deb izohlaydi [14]. Deaux esa ijtimoiy identiklikni 5 turga bo'lgan: etnik va diniy identiklik, siyosiy identiklik, kasblar va hobbilar, shaxsiy munosabatlar va marginal guruhlar [15].

Zimmermann identiklikni kamida 3 turga ajratadi: diskursiv, vaziyatli va ko'chuvchi identikliklar. Diskursiv identiklik inson o'zini lisoniy vaziyatda so'zlovchi, tinglovchi, savol beruvchi va javob beruvchi sifatida ko'rishida namoyon bo'lsa, vaziyatli identiklik shaxs ma'lum bir ijtimoiy faoliyatda ishtirok etganda o'zlashtiriladigan roli sifatida tushunilishi mumkin. Ko'chuvchi identiklik esa turli munosabatlarda shaxsga hamrohlik qiluvchi identiklik bo'lib, Zimmermann uni izohlashda erkaklik misolini bir diskurs vaziyatidan boshqasiga ko'chuvchi sifatida keltiradi [16].

B. Zhalehgooyan [17] ilmiy maqolasida iqtibos keltirishicha, Stockton (2015) ham o'z tadqiqotida 'identiklik' so'zini quyidagi atamalar bilan izohlash mumkinligini ta'kidlaydi: madaniy, lingvistik, etnik, ijtimoiy, irqiy, gender, akademik yoki savodli, milliy va sinfiy. Biroq, agar u ushbu xususiyatlarsiz ishlatilgan bo'lsa, uni 'aniqlanmagan' deb atash mumkin [18].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni olib borishda sotsiologiyaviy, psixologiya, antropologiya kabi sohalar aro keng qamrovli adabiyotlar tahlili olib borilgan bo'lib, ilmiy maqolalar, kitoblar, keys stadilar, intervyular vositasida sifatli ma'lumotlar yig'ildi. To'plangan ma'lumotlarni analiz va sintez qilish natijasida mavzuviy tahlil amalga oshirildi.

Identiklikni tadqiq etishda tabiatan sifatli ma'lumotlar (masalan, intervyular) ahamiyatli bo'lsa-da, miqdoriy natijalarga qaratilgan aralash metodlardan (masalan, so'rovnomalar) foydalanishga ham ehtiyoj tug'iladi. Ahamiyat qaratish lozim bo'lgan yana bir jihat bu tadqiqotning davomiyliги bo'lib, identiklikning shakllanishini o'rganuvchi tadqiqotlar uzoq muddatli kuzatuvlarga asoslanishi zaruratidir. Ma'lum bir vaqtda namoyon bo'luvchi identiklikni o'rganuvchi tadqiqotlar esa nisbatan qisqa vaqtda ham xulosalar taqdim eta oladi.

Lisoniy identiklik tadqiqida, shuningdek, etnografik kuzatuv, kundalik va jurnallar tutish, hikoya metodlaridan ham faol foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Shaxs identikligini ifoda etishda uning bir emas, bir necha jihat va xususiyatlari inobatga olingani uchun, identiklik ham bir emas, bir qator fanlarning tadqiqot obyekti sanaladi. Psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, adabiyot, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, siyosat, falsafa va amaliy tilshunoslik kabi fanlar shular jumlasidandir. Ushbu ishda identiklik til nuqtayi nazaridan, ya'ni amaliy tilshunoslik doirasida lisoniy identiklik ko'rinishida o'rganildi.

O'zbekistonda identiklik tadqiqi borasida bugungacha bir necha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ular asosan ijtimoiy falsafa, dinshunoslik, sotsiologiya va siyosiy fanlar doirasida amalga oshirilgan. X.Soqiyev, Z.Odinayeva, D.Kalandarova, X.Kadirova, Sh.Iskandarov, A.Xursandov kabi olimlar identiklik masalasiga ilmiy yondashib, uni va unga ta'sir etuvchi omillarni turfa nuqtayi nazardan o'rganishgan. Bu borada til omili ahamiyati ba'zi ishlarda tilga olinsa-da, u asosiy planda – lisoniy identiklik sifatida alohida tadqiq etilmagan.

Shahnoza Madayeva muallifligidagi "Identiklik antropologiyasi" (2015) kitobining 6-bobi 'O'zbek tili identikligi – milliy identiklikning ajralmas qismi' deb nomlangan bo'lib, bob o'zbek tili taraqqiyoti bosqichlarini chuqur tahlil etgan. Muallif diniy, huquqiy va lisoniy identiklikni tahlil etar ekan, ularni o'zbek xalqining o'z-o'zini anglash va o'z taraqqiyot yo'lini belgilashdagi hosil qilingan ijtimoiy mexanizmlar deb baholaydi [19].

Amaliy tilshunoslik doirasida esa identiklikka bi/multilingualizm, jamiyatda til, ikkinchi til ta'limi, va chet tili o'qituvchisini tarbiyalash borasidagi ishlarda faol ravishda murojaat qilinadi [20]. Shuningdek, tilni o'rganish va qo'llashga aloqador identiklik tadqiqi natijalari sifatida nashr etilgan kitob va monografiyalarni Block mazmun jihatdan 2 ta katta guruhga: ta'lim muhiti (Creese, 2005; Hadi-Tabussen, 2006; Heller, 1999, 2006; Miller, 2003) va tabiiy muhitdagi (Block, 2006; Joseph, 2004; Nic Craith, 2007; Norton, 2000; Pavlenko and Blackledge, 2004) lisoniy identiklik xususidagi ishlarga bo'lgan [21].

Identiklikni ta'lim doirasida o'rganishga bag'ishlangan ishlarda identiklik va idealogiya, identiklik va irq, identiklik va jins, yozuvda identiklik, til o'rganuvchi identikligi va o'qituvchining professional identikligi kabi turfa masalalarni qamrab olgan.

Blockning yana bir klassifikatsiyasiga ko'ra esa identiklik xususidagi tadqiqotlarni 3 ta asosiy kategoriyaga ajratish mumkin: 1. Immigrantlardagi ikkinchi til (L2) identikligi; 2. Ikkinchi til kontekstidagi L2 identikligi; 3. Chet tili kontekstidagi L2 identikligi [22].

Lisoniy identiklik termini lingvistik (asosan sotsiologiyaviy) tadqiq adabiyotlarida (masalan, Dressler, 2014; Hansen Edwards, 2020; Palviainen va Bergroth, 2018; Gayton va Fisher, 2022) takror qo'llaniluvchi atama hisoblansa-da, u ko'plab ishlarda qo'shimcha izoh va tushuntirishlarsiz foydalanilgan, yoki ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy fanlar doirasidagi ijtimoiy identiklik tushunchasi kabi qo'llanilgan (masalan, Kuo, 2009; Park, 2012; Sung, 2022; Wing va boshqalar 2015) [23].

Payman uni quyidagicha ta'riflaydi: 'Lisoniy identiklik deganda biz nihoyatda noturg'un va o'zgaruvchan bo'lgan, u orqali shaxslar turli kontekstlarda o'zligini namoyon etuvchi, lingvistik jihatdan ifodalanuvchi identiklikni nazarda tutamiz' [24].

Eric Anchimbe tahririda nashrdan chiqqan *Linguistic Identity in Postcolonial Multilingual Spaces* kitobida til va identiklik munosabati borasida ikki xil qarash borligi izohlanadi: 'Lisoniy identiklik tushunchasi bugungacha turlicha nuqtayi nazardan ifoda etilgan bo'lib, ba'zi olimlar identiklik va til (va madaniyat) o'rtasida aloqadorlik borligini inkor etishadi. Ular fikricha, voyaga yetgan ikkinchi til o'rganuvchilari o'sha tilda so'zlashish uchun til madaniyati bilan tanish bo'lishi, o'sha til lisoniy identikligini namoyon etishi shart emas. Bu qarash yangi tilni o'rganish faqatgina instrumental maqsad bilan cheklanganda to'g'ri bo'lishi mumkin edi. Biroq, afsuski, instrumental va integrativ maqsadlar o'rtasida aniq chegara belgilash imkonsiz. Boshqa tarafdin esa, ikkinchi tur olimlar esa o'sha tilda muloqot qilinmagunga qadar identiklik to'liq bo'lmasligiga ishonishadi [25].

Masalan, Sapir-Whorf gipotezasiga asosan, til so'zlovchilarning dunyoni idrok etish usulini shakllantiradi, ammo bu til va identiklik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni anglatmaydi. Gipotezaga ko'ra, turli tillarda so'zlashuvchilar o'zlarining tillaridagi grammatik va leksik farqlar tufayli dunyoni turlicha idrok etishlari mumkin, ammo bu ularning identikligi faqat ularning tili bilan belgilanadi, degani emas [26].

Biz tadqiqotimiz davomida o'rgangan ishlarning asosiy qismi til va identiklikning uzviy bog'liqligini e'tirof etib, bu qarashni misollar va tajribalar vositasida asoslagan. Biz ham til va identiklik bir biriga ta'sir etuvchi munosabatga egaligi to'g'risidagi qarash tarafdorimiz.

Xulosa va takliflar. Identiklik tashqi ko'rinish va boshqa vositalar barobarida, til vositasida ham namoyon bo'lib, so'zlovchining uslubi, mavzu tanlovi hamda o'zi va boshqalar haqida qanday gapirishi bizga undagi o'zlik konsepti haqida ko'plab ma'lumotlar berishi mumkin. Shuning uchun, til identiklikni ifoda etishning muhim vositasidir.

Bonny Norton, Sian Preece, David Block, Frank Nuessel, Linda Fisher, va Stefanie Siebenhutter kabi bir qator olimlar lisoniy identiklik tadqiqotlari bo'yicha sifatli materiallar mualliflaridir. Rika Mutiara, Amina Khalid and Arshad Ali Khan, Yanling Cai, Liang Zhao va Roswita Dressler kabi tadqiqotchilar esa amaliy tadqiqotlar orqali lisoniy identiklik tahlilini o'tkazganlar.

Lisoniy identiklik xususidagi tadqiqotlar insonlarning tilni qanday o'rganish, ishlatish, va unga oid tajribalari bilan qanday munosabatda bo'lishini tushunishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Fisher L., Evans M., Forbes K., Gayton A. & Liu Y. (2020). Participative multilingual identity construction in the languages classroom: a multi-theoretical conceptualization. *International Journal of Multilingualism*. 17:4, pp. 448-466.
2. Preece, S. (2016). Introduction: identity in applied linguistics. *The Routledge Handbook of Language and Identity*.
3. Collins dictionary. – 2023.
4. Siebenhütter, S. (2023). The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity. *Ampersand Volume 10*, 100123.
5. Wenger, E. (1998). *Communities of Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Nuessel, F. (2005). *Language as/and Identity*. *Semiotics 2003: Semiotics and National Identity*.
7. Sabri, S., & Minwas, J. R. (2022). A review on identity from A linguistic and sociological perspective. *International Journal of Social Sciences & Educational Studies*, 9(4), 225-236. <https://doi.org/10.23918/ijsses.v9i4p225>
8. Skutnabb -Kangas, Tove. (2000). *Linguistic Genocide in Education-or Worldwide Diversity and Human Rights?* (Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates).
9. Block, D. (2013). *Issues in language and identity research in applied linguistics*. *Estudios De Lingüística Inglesa Aplicada*.
10. Hall, S. (1996). Introduction: Who needs 'identity'?. In S. Hall & P. du Gay (Eds.), *Questions of cultural identity* (pp. 1-17). London: Sage.
11. Krumm, H. (2020) *Mehrsprachigkeit und Identität*. *Handbuch Mehrsprachigkeit und Bildung*. Springer VS, Wiesbaden. – pp. 131-132.
12. Jenkins, R. (2008). *Social identity* (3 ed.). London and New York: Routledge.
13. Block, D. (2006). *Identity in applied linguistics: Where are we?*. In T. Omoniyi and G. White (eds.), *The Sociolinguistics of Identity* (pp. 34-49). London: Continuum.
14. Gee, J. (2005). *An introduction to discourse analysis: theory and method* (2 ed.). New York : Routledge.
15. Deaux, K. (2001). *Social Identity*. *Encyclopedia of Women and Gender*, 1 & 2. Cambridge, USA: Academic Press.
16. Zimmermann, D. (1998). *Identity, context and interaction*. In C. Antaki, & S. Widdicombe (Eds.), *Identities in talk* (pp. 87-106). London: Sage.
17. Zhalehgooyan, B. (2017). *Second language identity*. Universiteit Leiden. <https://hdl.handle.net/1887/57212>
18. Stockton, H.L. (2015). *Identity-Focused Second Language Acquisition: A Systematic Review of Classroom Applications* (Unpublished master thesis). Hamline University, Saint Paul, Minnesota.
19. Madayeva, Sh. (2015). *Identiklik antropologiyasi*. Toshkent. Noshir.
20. Block, D. (2013). *Issues in language and identity research in applied linguistics*. *Estudios De Lingüística Inglesa Aplicada*.
21. Block, D. (2009). *Identity in applied linguistics: The need for conceptual exploration* (2009). *Contemporary Applied Linguistics*. Volume 1.
22. Block, D. (2007). *Second Language Identities*. London: Continuum.
23. Siebenhütter, S. (2023). The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity, *Ampersand*, Volume 10, 100123, ISSN 2215-0390, <https://doi.org/10.1016/j.amper.2023.100123>
24. Payman, G. M. (2018). *Construction of Linguistic Identity*. *International Journal of Central University of Kerala*.
25. Anchimbe, E.A. (2007). *Linguistic Identity in Postcolonial Multilingual Spaces*.
26. <https://www.studysmarter.co.uk/explanations/english/language-and-social-groups/language-and-identity/>